



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 5 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>Kalenov K.T.</i>	22
8.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING TO'G'RI SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich</i>	25

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING TO'G'RI SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI

Shirinov Sabir Erkinovich

Soliq va soliqa tortish kafedrası professorı, iqtisod fanları doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

shirinovsibir@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0000-0001-6054-4059>

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjetining foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining mutloq miqdorlari, nisbiy miqdorlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida davlat byudjetining solikli daromadlari hamda foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining 2020-2024 yillar davomida o'zgarish tendensiyalari aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining oshirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, mutloq miqdor, nisbiy miqdor, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Abstract: This article analyzes the absolute and relative amounts of tax revenues from profit tax, turnover tax, and personal income tax of the state budget of the Republic of Uzbekistan. The analysis identified trends in tax revenues from profit tax, turnover tax, and personal income tax for 2020-2024. Based on this analysis, proposals and recommendations were developed to increase tax revenues from profit tax, turnover tax, and personal income tax.

Keywords: profit tax, turnover tax, absolute value, relative value, personal income tax.

Абстрактный: В данной статье анализированы абсолютные и относительные величины налоговых поступлений налога на прибыль, налога с оборота, налога на доходы физических лиц государственного бюджета Республики Узбекистан. В процессе анализа выявлены тенденции изменения налоговых поступлений налога на прибыль, налога с оборота, налога на доходы физических лиц за 2020-2024 годы. По результатам анализа разработаны предложения и рекомендации по увеличению налоговых поступлений налога на прибыль, налога с оборота, налога на доходы физических лиц.

Ключевые слова: налог на прибыль, налог с оборота, абсолютная величина, относительная величина, налог на доходы физических лиц.

Kirish (Введение/Introduction).

Shuni ta'kidlash kerakki, byudjet daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslari tarkibiga kiradi, milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlash orqali shakllanadi va davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining funktsiyalarini bajarish uchun foydalaniladi.

2025 yil uchun qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida 308 546,9 mlrd. so'm jami daromadlar yig'ilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 30 335,0 mlrd. so'mi boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar, qolgan qismi solikli daromadlar tashkil qiladi[1].

Bugungi kunda O'zbekistonda fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish masalalari ko'p jihatdan konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini samarali menejmentiga bog'liq bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonida Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash zarurligini belgilab berilgan[2].

Turli darajadagi byudjetlar daromadlarining asosiy manbai YaIM (birinchi navbatda uning milliy daromaddagi ulushi) hisoblanadi.

Soliqlar milliy daromadni iqtisodiy sharoitda qayta taqsimlashning asosiy usuli hisoblanadi.

Soliqlar ob'ektiv zaruratdir, chunki ular jamiyatning ilg'or rivojlanishi ehtiyojlari bilan shartlanadi. Davlat o'zining tegishli funktsiyalarini bajarish uchun yig'adigan mablag'larga muhtoj: ijtimoiy, mudofaa, huquqni muhofaza qilish, fundamental fanni rivojlantirish va hokazo.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy nuqtai nazardan soliqlar davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan daromadlar va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning asosiy vositasidir.

Huquqiy nuqtai nazardan soliqlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar bo'lib, korxonalar, tashkilotlar va aholi daromadlarining bir qismini davlat tomonidan tekinga olib qo'yish miqdorlari, shakllari, usullari va muddatlarini tartibga soladi.

O'zbekistonda barcha darajadagi byudjetlarning asosiy daromad manbai yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlari hisoblanadi. Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbasi ekan, davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash masalasi ko'p jihatdan soliq tizimining samarali ishlashiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonida soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmagligini kafolatlash, soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash zarurligini belgilab berilgan[2].

Metodologiya (Методология/Methodology).

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini tahlil qilishda quyidagi metodologiyadan foydalanildi:

-axborotlarni yig'ish va dastlabki qayta ishlov berish;

-ma'lumotlarni guruhlash va ularga ishlov berish;

-statistik materiallarni umumlashtirish va tahlil natijalarini qayta ishlash;

-xulosa va tavsilarni ishlab chiqish.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi mutloq miqdorlar, ular o'rganilayotgan ob'ektning sonini, miqdorini qiymatda ifodalaydi, nisbiy miqdorlar esa statistik jamlamani tashkil qiluvchi birliklarning nisbiy miqdorini ifodalaydi. Ularni hisoblashda ikki ko'rsatkichning nisbati inobatga olinadi va quyidagi kattaliklarda o'lchanadi:

-foyzida;

-promilliyada;

- prodetsimilliyada.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi dinamik nisbiy miqdorlar soliq statistikasida o'sish darajasi ham deb yuritiladi. O'z navbatida dinamik nisbiy miqdorlarni hisoblashning bazisli va zanjirsimon usullar mavjud. Bazis davrga nisbatan keyingi davrlar

darajasi qancha miqdorda o'zgariganligi bazisli usul yordamida hisoblanadi.

Zanjirsimon usul yordamida har bir keyingi davr o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha o'zgarib borayotgani aniqlanadi. Dinamik ko'rsatkichlar koeffitsientlarda va foizlarda ifodalanadi.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi o'rtacha kattaliklar umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkich hisoblanib, ommaviy hisoblangan ijtimoiy hodisalarga umumlashtiruvchi xarakteristika beradi. Ular variatsiyalanuvchi belgining individual ahamiyati asosida hisoblanadi. Boshqa so'zlar bilan izohlaganda o'rtacha kattaliklar jamlama tarkibiga kiruvchi barcha o'rganilayotgan elementlarning umumiy tavsifini o'zida namoyon qiladi. O'rtacha kattaliklar yordamida jamlama elementlarining belgilarini o'zgarishiga sabab bo'luvchi barcha omillarning ta'sir miqdori o'rtachalashdiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature Review).

Bugungi kunga qadar "byudjet" tushunchasining mohiyati ko'plab xorij va respublikamizda taniqli bo'lgan iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ammo, ularning nazariy qarashlarida "byudjet" tushunchasiga nisbatan yagona yondoshuvlar mavjud emas.

A.V.Vahobov, T.S. Malikovlar "Davlat bor ekan, davlat byudjetiga to'lovlar ham mavjud bo'ladi. Lekin byudjetga to'lovlarning shakli ma'lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib boradi"[3], deb ta'kidlash.

Ye.A. Sidorovanning "Yevropa Ittifoqining byudjet siyosatini o'ziga xosligi" (2012 yil) nomli ilmiy risolasida "byudjet" tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: "byudjet, iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat hokimiyatining funksiyalarini va vakolatlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash, keyinchalik undan foydalanish bilan bog'liq jami iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Moddiylik nuqtai nazaridan, byudjetni davlat xarajatlarini qoplash uchun shakllantiriluvchi moliyaviy resurslar jamg'armasi, deb ta'riflash mumkin"[4]. Y. S. Dolganova, N.Y. Isakova, N.A.Istominalarning fikricha, "Byudjet mamlakat moliyaviy tizimida markaziy o'rin egallaydi va u davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Byudjet nafaqat davlat hokimiyati idoralarning funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, balkim mamlakat mustaqilligini zamini hamdir"[5]. K.S Belskiy va boshqalar "davlat byudjetini –davlatning moliyaviy tizimini markaziy bug'ini davlatning moliyaviy siyosatining amalga oshirishning muhim dastagidir"[6], deb tushuntirishga harakat qilishadilar. A.M. Godin va boshqalarning takidlashicha, "byudjet – davlatning hamda mahalliy hokimiyatlarining funksiya va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini shakllantirish va sarflash shakli"[7]. L.I. Yakobsonning fikricha, "Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamda yuqori qarzdorlik holatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muqarrardir. Shu sababli, o'zining funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar davlat tomonidan YaIM hisobidan yig'iladi. Moliyaviy resurslar resurslarning asosiy turi bo'lganligi sababli, davlat moliyasi, jumladan byudjet va uning daromad va xarajat qismlari milliy iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi"[8].

Iqtisodiy adabiyotlarda, bir vaqning o'zida "byudjet" tushunchasiga: "davlatning asosiy moliyaviy rejasi", "asosiy markazlashgan pul jamg'armasi", "jami pul munosabatlari", "muhim moliyaviy tartibga soluvchi dastak" va boshqalardan foydalangan holda ta'rif berilganligini kuzatamiz. Iqtisodchi olimlar tomonidan "byudjet" tushunchasiga berilgan talqinlarni tahlil qilish natijasida nazariy yondoshuvlarni yetti guruhga ajratdik: iqtisodiy kateoriya sifatida; moliyaviy hujjat sifatida; maxsus jamg'arma sifatida; davlatning moliyaviy siyosatining amalga oshirishning muhim dastagi sifatida; moliyaviy tizimini markaziy bug'ini sifatida; milliy iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini muhim tarkibiy qismi sifatida; davlat hokimiyati idoralarning funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, mamlakat mustaqilligini zamini sifatida.

Har-bir mamlakat o'zining davlat tuzilishiga qarab, unga mos bo'lgan byudjet tuzilmasidan foydalanadi. O'zbekiston - unitary davlat. Uning byudjet tizimi respublika va mahalliy byudjetlardan tashkil topgan. Iqtisodiy adabiyotlarda "Byudjet tuzilmasi" tushunchasi turli xil talqin qilingan. "Byudjet tuzilmasi –bu, byudjet tizimining tashkiliy- huquqiy qurilmasi bo'lib, u o'z tarkibiga byudjetlarni, tamoyillarni hamda ular o'rtasidagi o'zaro a'loqa shakllarini kiritadi"[9].

M. Dovjilevchning fikricha, "Yevropa Ittifoqining umumiy byudjeti, a'zo mamlakatlarining o'ziga xos, birgalikdagi loyihasi hisoblanadi. A'zo mamlakatlar umumiy vazifalarni hal qilish maqsadida, umumiy byudjetga o'zlarining resurslarini birlashtiradi"[10]. "Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, hududiy siyosat hamda ma'muriy apparatni saqlash kabi masalar umumiy byudjet hisobidan hal qilinadi"[11].

"Byudjet daromadi" tushunchasi pul mablag'larini byudjetga jalb qilish jarayonida yuzaga keluvchi barcha munosabatlar majmuasi sifatida talqin qilishimiz mumkin. Masalan, byudjet, soliq va bojxona

qonunchiligiga muvofiq, "milliy daromadning bir qismi iqtisodiy subyektlardan hamda fuqarolarda davlat hokimiyati ixtiyoriga, qaytarmaslik shartida olinadi"[12]. Aytish joizki, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki jarayon mavjud. Birinchisi, davlat ixtiyoriga moliyaviy resurslarni jamlash bo'lsa, ikkinchi jarayon jamlangan mablag'larni davlat ehtiyoji uchun ishlatiladi. Bunda, birinchi jarayon "davlat daromadi", deb talqin qilinsa, ikkinchi jarayon –"davlat xarajalari", deb ataladi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/ Analysis and results).

2024 yilda davlat byudjetining jami daromadi 335,23 trln. so'mni tashkil qilgan yoki 2023 yilga nisbatan +103,51 trln. so'mga, 2022 yilga nisbatan +133,36 trln. so'mga, 2021 yilga nisbatan +170,55 trln. so'mga, 2020 yilga nisbatan +202,29 trln. so'mga oshgan.

1-jadval.

2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari mutloq miqdorlari, trln. so'mda

Yillar	BJD	BJSD	TO'S	FS	AYS	JDS
2020	132,94	112,89	45,21	28,71	1,35	15,14
2021	164,68	138,26	58,93	38,36	1,65	18,92
2022	201,86	159,75	64,45	37,65	2,51	24,28
2023	231,72	184,51	73,10	40,78	2,41	29,92
2024	335,23	264,53	112,49	65,94	3,42	43,13

BJD – davlat byudjetining jami daromadlari;

BJSD - davlat byudjetining jami soliqli daromadlari;

TO'S - to'g'ri soliq tushumlari;

FS -foйда soliq tushumi;

AYS - aylanmadan olinadigan soliq;

JDS -jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Davlat byudjetining jami soliqli daromadlari miqdori 2024 yilda 264,53 trln. so'mga teng bo'lgan yoki ushbu ko'rsatkich 2023 yilga qaraganda +80,02 trln. so'mga ko'p demakdir.

To'g'ri soliq tushumlari 2020 yilda 45,21 trln. so'mni, 2021 yilda 58,93 trln. so'mni, 2022 yilda 64,45 trln. so'mni, 2023 yilda 73,10 trln. so'mni, 2024 yilda 112,49 trln. so'mni tashkil qilgan.


2-jadval.

2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari o'sish sur'atlari, %da

Soliq turlari	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
BJD	100	123,88	122,58	114,79	144,67
BJSD	100	122,47	115,55	115,50	143,37
TO'S	100	130,36	109,36	113,43	153,88
FS	100	133,61	98,14	108,31	161,70
AYS	100	121,83	152,34	95,81	142,23
JDS	100	124,95	128,37	123,20	144,17

2024 yilda (65,94 trln. so'm) foyda soliq tushumi 2023 yilga qaraganda 25,16 trln. so'mga, 2022 yilga qaraganda 28,29 trln. so'mga, 2021 yilga qaraganda 27,58 trln. so'mga, 2020 yilga qaraganda 37,23 trln. so'mga oshgan.


Aylanmadan olinadigan soliq tushumi 2024 yilda 2,41 trln. so'mni tashkil qilgan yoki 2020 yilga qaraganda +2,07 trln. so'mga ko'p yig'ilgan. Davlat byudjetining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi 2024 yilda 43,13 trln. so'mni, 2023 yilda 29,92 trln. so'mni, 2022 yilda 24,28 trln. so'mni, 2021 yilda 18,92 trln. so'mni, 2020 yilda 15,14 trln. so'mni tashkil qilgan.



1-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari o'sish sur'atlarining grafiklari

2024-2020 yillarda davlat byudjetining jami daromadlari barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Eng yuqori o'sish sur'atiga davlat byudjetining jami daromadlari 2024 yilda erishgan. Ushbu yilda uning darajasi 144,67 % ni tashkil qilgan. Davlat byudjeti jami daromadlarining eng past o'sish sur'ati 2023 yilda (114,79%) qayd qilingan.

Tahlil uchun tanlangan davrda davlat byudjetining jami soliqli daromadlarining o'sish sur'atlari bir-oz tebrangan holda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Davlat byudjetining jami soliqli daromadlarining eng yuqori o'sish sur'ati 2024 yilda (143,37%), eng past o'sish sur'ati 2023 yilda (115,50%) kuzatilgan.



2-rasm. 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga yig'ilgan foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari o'sish sur'atlarining grafiklari

Tahlil davomida to'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'atlari 2020-2024 yillar davomida keskin tebranganligi ma'lum bo'ldi. 2021 yilda (109,36%) to'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'atlari 2020 yilda (130,36%) qayd qilingan o'sish sur'atlariga nisbatan pasaygan. Ammo, 2023 (113,43%) - 2024 (153,88%) yillarda to'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'atlari yana jadallashganligini ko'ramiz.

3-jadval.


2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining vertikal tahlili

Soliq turlari	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
BJD	100	100	100	100	100
BJSD	84,92	83,95	79,14	79,63	78,91
TO'S	34,01	35,78	31,93	31,55	33,56
FS	21,60	23,30	18,65	17,60	19,67
AYS	1,02	1,00	1,24	1,04	1,02
JDS	11,39	11,49	12,03	12,91	12,87

Davlat byudjeti foyda solig'i tushumining eng yuqori o'sish sur'ati 2024 (161,70%), eng past o'sish sur'ati 2022 yilda (98,14%) qayd qilingan. 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 133,61% miqdorida baholangan.

Aylanmadan olinadigan soliq tushumining o'sish sur'atlari 2021 yilda 121,83%, 2022 yilda 152,34%, 2023 yilda 95,81% (eng past o'sish sur'at), 2024 yilda 142,23% (eng yuqori o'sish sur'at)ga teng bo'lgan.


2024 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq tushumining o'sish sur'ati 144,17% miqdorida qayd qilingan. Ushbu soliq tushumining eng past o'sish sur'ati 2023 yilda (123,20%) kuzatilgan.



3-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan jami soliqli daromadlar hamda to'g'ri soliq tushumlarining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushlarining o'zgarishi

2020-2024 yillarda davlat byudjeti jami soliqli daromadlarining jami daromadlari tarkibidagi ulushi pasayganligini ko'ramiz (2020 yilda (84,92%, 2024 yilda (78,91%). 2024 yilda to'g'ri soliq tushumlarining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 33,56%ni tashkil qilgan. Ushbu soliq tushumining eng yuqori ulushi 2020 yilda (34,01%), eng past ulushi 2023 yilda (31,55%) kuzatilgan.

Foyda solig'i tushumining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushi 2020 yilda 21,60%ni, 2021 yilda 23,30%ni, 2022 yilda 18,65%ni, 2023 yilda 17,60%ni, 2024 yilda 19,67%ni tashkil qilgan.



4-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushlarining o'zgarishi

Vertikal tahlil natijasi aylanmadan olinadigan soliq tushumi davlat byudjeti jami daromadlari tarkibida kam ulushga ega bo'lganligi ko'rsatmoqda. Tahlil uchun tanlangan davrda ushbu soliq tushumining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushi 1,00% (2021 yil) - 1,24% (2022 yil) o'rtasida tebrangan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushida jiddiy o'zgarish yuz bermagan. 2020-2024 yillarda mazkur soliq tushumining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushi 11,39%-12,91% o'rtasida tebrangan.

Xulosa (Заключение, Conclusion).

Yuqorida amalga oshirilgan davlat byudjeti va uning to'g'ri soliq tushumlari tahlili tahlil natijasiga ko'ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. 2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari mutloq miqdorda doimiy o'sib borgan.

2. Tahlil uchun tanlangan davrda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari +202,29 trln. so'mga, jami soliqli daromadlari +151,63 trln. so'mga, to'g'ri soliq tushumlari +67,29 trln. so'mga, foyda solig'i tushumi +37,23 trln. so'mga, aylanmadan olinadigan soliq tushumi + 2,07 trln. so'mga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi + 27,99 trln. so'mga oshgan.

3. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining bazis yoki zanjirli usulda aniqlangan mutloq miqdordagi oshib borishiga asoslanib soliqlarni yig'iluvchanlik darajasiga xulosa berish yetarli bo'lmaydi.

4. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining jami daromadlari, jami soliqli daromadlari, to'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan

olinadigan daromad solig'i tushumlarini sifatli tahlil qilish uchun gorizontal vertikal tahlil qilish maqsadga muvofiq.

5. To'g'ri soliq tushumlari, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari mutloq miqdorda o'sgan, ammo gorizontal tahlili natijalari o'rganilganda, ularning o'sish sur'atlari nobarqaror o'zgarganligi, ayrim yillarda kamayganligi kuzatilgan.

6. Jami solikli daromadlar, to'g'ri soliq tushumlar, foyda solig'i tushumi, aylanmadan olinadigan soliq tushumi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini davlat byudjetining jami daromdlari tarkibidagi ulushlari (vertikal tahlil natijasi) tahlil uchun tanlangan davrda keskin o'zgarmagan.

Yuqoridagi xulosalarga asosan quyidagi **takliflar** ishlab chiqildi:

- soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini oshirish orqali foyda solig'i, aylanmadan olinadigan hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining barqarorligini ta'minlash;

- soliq salohiyatini doimiy oshirib borish hamda qo'shimcha daromad manbalarini izlab topish orqali foyda solig'i, aylanmadan olinadigan hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining mutloq miqdorini barqaror o'sishini ta'minlash.

- soliq qarzdorligini qisqartirish yuzasidan tasirchan choralar ishlab chiqish hamda amalga joriy qilish orqali foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini oshirish;

- davlat byudjeti va uning to'g'ri soliq tushumlarini tahlil qilish uslubiyatini xorij mamlakatlarning ilg'or amaliyotidan kelib chiqib, doimiy takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasining «2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida. 2024 yil 25 dekabr, 455-son. <https://lex.uz/uz/docs/7283107>
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, -T.:2022-y. -152 b.
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet(289b).
4. Sidorova Ye.A. Osobnosti byudjetnoy politiki v Yevropeyskom soyuze – M.: IMEMO RAN, 2012 – 129 s. (s.9). ISBN 978-5-9535-0343-3.
5. Финансы : учебник / Yu. S. Dolganova, N.Yu. Isakova, N.A. Istomina [i dr.] ; pod obsh. red. kand. ekon. nauk, dos. N.Yu. Isakovoy ; Min-vo obr. i nauki RF. — Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2019. — 336 s. (s. 80). ISBN 978-5-7996-2748-5
6. Finansovoe pravo: uchebnik / Belskiy K.S., Gorbunova O.N., Grachyova Ye.Yu. i dr.; otv. red. Zapolskiy S.V.; Ros. Akad. pravosudiya. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: Volters Kluver, 2011. 760s. (s. 140-141.)
7. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: ucheb. / A.M. Godin [i dr.]— 4-e izd., ispr. i dop.— Moskva : Dashkov i K, 2007.— 568 s.(s.10).
8. Yakobson L.I. Gosudarstvennyy sektor ekonomiki. Ekonomicheskaya teoriya i politika. – M.: GU VShE, 2000. – 365 s.(S. 24)
9. Финансы : учеб. / pod red. prof. M. V. Romanovskogo, prof. O. V. Vrublevskoy, prof. B. M. Sabanti. 2-ye izd., pererab. i dop. M. : Yurayt : Vysshee obrazovanie, 2010. S. 111.
10. Dowgielewicz M. Slashing the EU's budget won't fix the crisis // Europe's world. 2011. Spring. R. 46.
11. Finansovaya politika stran YeS / V.P. Gutnik i dr. – M.: Nauka, 2004. – 267 s. (s. 211)
12. Selyukov A. D. Finansovoe obespechenie mestnogo samoupravleniya: problemy pravovogo regulirovaniya / A. D. Selyukov. – M. : Nas. in-t biznesa, 2003. (S. 169).